

SHAXS-SON QO`SHIMCHALARINI O`QITISHDA TEJAMKORLIKKA O`RGATISH METODIKASI

Sharipova F.

7-2BT-21M guruh magistranti

Kalit so'zlar: kishilik olmoshi, egalik qo'shimchasi, shaxs-son qo'shimchasi, tejamkorlik

Annotatsiya: ushbu maqolada shaxs-son qo'shimchalarini o'qitishda tejamkorlikka o'rgatish usullari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan

4-sinf o'quvchilarini shaxs-son qo'shimchalarini qo'llashda tejamkorlikka o'rgatish uchun birinchi navbatda ularga shaxs-son qo'shimchalari va bosh kelishikdagi kishilik olmoshining ma'nodosh ekanligini tushuntirish lozim. Buning uchun o'qituvchi doskaning bir tomoniga bosh kelishikdagi kishilik olmoshlarini, boshqa tomoniga shaxs-son qo'shimchalarini olgan so'zlarni yozadi.

Sen o'qidim

Men o'qiding

U o'qidi

Siz o'qidingiz

Ular o'qidilar

bizo'qidi.

Keyin esa o'quvchilarga chap va o'ng tomondagi ma'nosi bir-biriga mos keladigan so'zlarni bog'lab, gap tuzishni topshiradi.

O'quvchilar quyidagi gaplarni tuzadi.

Men o'qidim

Sen o'qiding

U o'qidi

Biz o'qidek

Siz (lar) o'qidingiz

Ular o'qidi.

Shundan keyin o'qituvchi o'quvchilardan so'raydi:

- O'quvchilar, sizlar nima uchun o'qidim so'zini men so'zi bilan bog'ladingiz. O'quvchilar javob bera olmasa, o'qituvchiningo'zi tushuntiradi.

- Chunki o'quvchilar "o'qidim" so'zidagi -m qo'shimchasi men degan ma'noni bildiradi. Boshqa qo'shimchalar ham shunday: o'qiding so'zidagi – ng qo'shimchasi sen degan, o'qidi so'zidagi – k qo'shimchasi biz dagan, o'qidingiz so'zidagi – ngiz qo'shimchasi siz yoki sizlar degan ma'noni bildiradi. Demak, o'quvchilar shaxs-son qo'shimchalari bilan bosh kelishikdagi kishilik olmoshlari ma'nodosh ekan. Bundan

tashqari boshqacha ko‘rinishdagi shaxs-son qo‘shimchalari ham bor. Masalan, o‘qiyman, o‘qiysan, o‘qiydi, o‘qiyimiz so‘zlaridagi - man, -san, -miz, -siz, -di qo‘shimchalari ham shaxs-son qo‘shimchalaridir.

Shundan so‘ng, o‘qituvchi doskaga ma‘nodosh shaxs-son qo‘shimchalari va kishilik olmoshlarini yonma-yon yozadi:

- m, -man – men
- ng, -san – sen
- di–u, ular
- k, - miz – biz
- ngiz, - siz – siz

Kishilik olmoshi bilan ifodalangan gaplar yozdirilib, kishilik olmoshining nima uchun qo‘llanganligi yoki qo‘llanmaganligi so‘raladi. Misol uchun, o‘quvchilarga quyidagicha gaplar yozdirilishi mumkin:

1. Na‘matakning gulini ko‘rganmisan?
2. Chol kenja o‘g‘liga: - Sen nega indamaysan? – debdi.
3. O‘qishlarim yaxshi ona tili, matematika fanlaridan “besh” bahoga o‘qiyapman.
4. Men 3-sinfda o‘qiyman.
5. Sog‘lom, quvnoq bolaman,
Mehnatdan zavq olaman.
Men ham to‘garakka qatnashaman.

Bunday mashq orqali o‘quvchilar shaxs-son ma‘nosini ifodalashda qay holatda kishilik olmoshini qo‘llash, qay holatda qo‘llamaslik lozimligini bilib oladi.

2. O‘quvchilarga bosh kelishikdagi kishilik olmoshi to‘g‘ri va noto‘g‘ri qo‘llangan gaplar yozdiriladi: o‘qituvchi o‘quvchilarga qaysi gaplarda to‘g‘ri, qaysi gaplarda noto‘g‘ri qo‘llanganini aniqlashni topshiradi. Misol uchun o‘quvchilarga quyidagi gaplar yozdirilishi mumkin:

1. Biz gulxan atrofida o‘tirib ertangi kun rejalarini tuzdik.
2. Men shashkachilar to‘garagiga a‘zoman. Karima, sen ham shu to‘garakka a‘zo obo‘lasanmi?
3. Bobomdan eshitgan voqealarni men senga hikoya qilmoqchiman.
4. Sen bilasanmi, bir yilda nechta oy bor?
5. Men quyosh botishini ko‘p kuzatganman.

O‘qituvchi yozdirilgan gaplarni o‘quvchilar bilan birga tahlil qiladi. Bu gaplarda kishilik olmoshining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘llanganini aniqlash uchun gapni olmoshni tushurib qoldirgan holda o‘qitib ko‘rish usulidan foydalanish mumkin.

O‘qituvchi: “O‘quvchilar, sizlar men yozdirgan gaplarda biz, men, sen so‘zlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ishlatilganini aniqlashingiz kerak. Birinchi gapni o‘qiyimiz “Qani, Murodjon, sen o‘qi-chi”

Murodjon o‘qiydi: “Biz gulxan atrofida o‘tirib ertangi kun rejalarini tuzdik”.

O'qituvchi: "Murodjon, bu gapda biz so'zi to'g'ri qo'llanganmi?"

Murodjon javob berishga qiynalsa, o'qituvchi shunday deydi: "Murodjon, qiynalayotgan bo'lsang, gapni biz so'zini tushirib qoldirib o'qi". Murodjon o'qiydi: "Gulxan atrofiga o'tirib ertangi kun rejalarini tuzdik". O'qituvchi: "Murodjon, nima deysan, bu gapda biz so'zini ishlatmasak ham bo'lar ekanmi?" – deb so'raydi. Murodjon: "Ha, bo'ladi",- deb javob beradi.

O'qituvchi: "Demak, o'quvchilar, bu gapda biz so'zi ortiqcha, noto'g'ri ishlatilgan".

Shundan keyin ikkinchi gap tahliliga o'tiladi. O'qituvchi: o'quvchilar, ikkinchi misolimiz ikkita gapdan iborat. Bu gaplarda men va sen olmoshlari to'g'ri ishlatilganmi? Qani, Manzura, sen javob ber- chi? Manzura javob beradi: "Ha, ustoz, bu gaplarda men va sen olmoshlari to'g'ri ishlatilgan. Chunki ikkala gapdagi olmoshni ham tushirib qoldirib bo'lmaydi. Birinchi gapda so'zlovchi o'zini ta'kidlab ko'rsatgan. Ikkinchi gapda esa ta'kidlash ma'nosi "ham" so'zi yordamida ifodalangan".

Qolgan gaplar ham shu tarzdatahlil qilinadi.

1. Shaxs-son qo'shimchalarini qo'llashda tejamkorlikka o'rgatishga doir mashqlarning navbatdagi turi quyidagicha: O'quvchilarga shaxs-son ma'nosi shaxs-son qo'shimchasi bilan ifodalangan gaplar yozdiriladi va bu so'zlardan oldin uch nuqta qo'yiladi.

O'quvchilar gapning mazmuniga qarab zarur o'rinda bosh kelishikdagi kishilik olmoshini yozishi kerak. Misol uchun quyidagi gaplarni yozdirish mumkin.

1. ... hayotdan juda ko'p narsani o'rgandim.
2. Agar do'sting senga aybingni aytib, nasihat qilsa, ... undan minnatdor bo'l.
3. ... yangi yil uchun o'yinchoqlar yasadik.
4. Laylak odamga o'xshab so'zlabdi: - ... meni qo'yib yubor ... nima tilasang, ... shuni beraman.
5. ... nimalarni orzu qilib yashayapsiz?
6. ... masalani yechdingizmi? – so'radi Tursunoy.

Gaplarni yozdirib bo'lgach, o'qituvchi o'quvchilarga mashqni daftarlarida mustaqil ravishda bajarishni topshiradi. O'quvchilar o'qituvchi ko'magida quyidagicha javob beradi.

- Birinchi gapda men so'zini ishlatish kerak. Chunki so'zlovchi o'zini ta'kidlab ko'rsatyapti.

Shuning uchun: Men hayotdan ko'p narsani o'rgandim – deyish to'g'ri bo'ladi.

- Ikkinchi gapda sen so'zini ishlatish kerak emas. Chunki bu gapda tinglovchi ta'kidlab ko'rsatilmagan.

O'qituvchi bu gapda agar so'zi ham ortiqcha qo'llanganini aytadi. Demak, bu gap quyidagicha ko'rinishda bo'ladi: Do'sting senga aybingni aytib, nasihat qilsa, undan minnatdor bo'l.

- Uchinchi gapda biz soʻzini ishlatish kerak, chunki bu gapda soʻzlovchi oʻzini taʼkidlab koʻrsatyapti. Shuning uchun: Biz yangi yil uchun oʻyinchoqlar yasadik deyish kerak.

- Toʻrtinchi misolda sen va men soʻzlarini ishlatish kerak emas. Chunki bu gaplarda soʻzlovchi va tinglovchi taʼkidlab, ajratib koʻrsatilgan. Shuning uchun: Siz nimalarni orzu qilib yashayapsiz, -deyish kerak.

- Oltinchi gapda sen soʻzini ishlatish kerak emas. Chunki bu gapda tinglovchi ajratib koʻrsatilmagan.

Yuqorida keltirilgan mashqlar bajarilgandan soʻng oʻquvchilarni shaxs-son qoʻshimchalarini qoʻllashda tejamkorlikka oʻrgatish uchun ularga mustaqil topshiriqlar berish mumkin. Bunday topshiriqlar ikki turli boʻlishi mumkin:

1. Oʻquvchilarga shaxs-son maʼnosi faqat shaxs-son qoʻshimchasivaham kishilik olmoshi, hamshaxs-son qoʻshimchasi bilan ifodalangan gaplar tuzishni topshirish.

2. Gazeta, jurnallarda kishilik olmoshi ortiqcha, nooʻrin qoʻllangan gaplarni topib, yozib olishni topshirish.

Ushbu maqolada koʻrsatilgan mashq va topshiriqlar yordamida 4-sinf oʻquvchilarini shaxs-son qoʻshimchalarini, aniqrogʻi bosh kelishikdagi kishilik olmoshini tejab ishlatishga oʻrgatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ҳоҗиева Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Номзодлик диссертацияси. Самарқанд, 2001. 134 б.
2. Abuzalova M. Hozirgi oʻzbek tili. Morfologiya Buxoro, 2005. 3-4 sinf ona tili darsliklari.
3. “Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innovatsion taʼlim texnologiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya